



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 15 - yanvar

13-10-0-Q/24

Toshkent viloyati hokimiligi

Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 28-maydagi 324-10-0-Q/22-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligining 2024 yil 21 dekabrda DP40472514-sonli xatini ijrosini ta’minlash, Tuman (shahar) hokimi o‘rinbosarlarining (keyingi o‘rinlarda – hokim o‘rinbosarlari) faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (keyingi o‘rinlarda – EMSK) asosida baholash tizimini takomillashtirish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan:

QAROR QILAMAN:

1. Hokim o‘rinbosarlari faoliyatini EMSK asosida baholash tizimini raqamlashtirish bo‘yicha “Samaradorlik.uz” elektron platformasi ishlab chiqilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 28-maydagi “Tuman (shahar) hokimi o‘rinbosarlarining faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholashning vaqtinchalik tartibini tasdiqlash haqida” 324-10-0-Q/22-son qaroriga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazoratini o‘z zimmasida qoldiraman.

Toshkent viloyati hokimi



Z.Mirzayev

Toshkent viloyat hokimining
2024-yil 15-yanvardagi
13-10-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 28-maydagi “Tuman (shahar) hokimi o‘rinbosarlarining faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholashning vaqtinchalik tartibini tasdiqlash haqida” 324-10-0-Q/22-sonli qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. 7-banddagi “viloyat hokimligining Axborot-tahlil guruhiga Tartib bilan belgilangan muddatlarda berib borishni” so‘zlari “Samaradorlik.uz” elektron platformasiga Tartib bilan belgilangan muddatlarda kiritilishini” so‘zlari bilan almashtirilsin.

2. Tuman (shahar) hokimi o‘rinbosarlarining faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholashning vaqtinchalik tartibida:

a) 1-band “(keyingi o‘rinlarda – EMSK) asosida” so‘zlaridan keyin “Samaradorlik.uz” elektron platformasi orqali” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

b) 2-band “(keyingi o‘rinlarda – Guruh)” so‘zlaridan keyin “hamda vazirlik va idoralarining hududiy boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda – hududiy boshqarmalar)” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

v) 5-bandda:

“asosida amalga oshiriladi” so‘zlari “asosida amalga oshirilib, EMSKga erishish yuzasidan ma’lumotlar tegishli hududiy boshqarmalar tomonidan “Samaradorlik.uz” elektron platformasiga kiritiladi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga tegishli ko‘rsatkichlar Guruh tomonidan “Samaradorlik.uz” elektron platformasiga kiritib boradi.”;

ikkinchi xatboshi uchinchi xatboshi deb hisoblansin;

g) 10-bandning ikkinchi va uchinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“15 fevralgacha (1-yarim yillik) hamda 15 avgustgacha (yillik) maqsadli (prognoz) parametrlarni hududiy boshqarmalar “Samaradorlik.uz” elektron platformasiga kiritadi hamda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari Guruhga yuboradi;

15 yanvargacha (yillik) hamda 15 iyulgacha (1- yarim yillik) amaldagi (fakt) natijalari bo'yicha ma'lumotlarni hududiy boshqarmalar "Samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritadi hamda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari Guruhga yuboradi.";

d) 11 va 12-bandlar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

ye) 15-bandning ikkinchi xatboshisi "keyingi baholash natijalariga qadar" so'zlaridan keyin "6 oy" so'zlari bilan to'ldirilsin;

j) 16-banddagi "taqdim etilishini" so'zlari "Samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritilishini" so'zlari bilan almashtirilsin;

z) Tuman (shahar) hokimi o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligini baholash sxemasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

Bosqichlar	Mas'ullar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Hududiy boshqarmalar Halq deputatlari tuman (shahar) kengashlari	- maqsadli (prognoz) parametrlarini "Samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritish; - maqsadli (prognoz) parametrlarini viloyat hokimligining Axborot-tahlil guruhiga kiritish.	15 fevralgacha (1-yarim yillik) 15 avgustgacha (yillik)
2-bosqich	Hududiy boshqarmalar xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari	- amaldagi (fakt) natijalari bo'yicha statistik ma'lumotlarni "Samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritish; - amaldagi (fakt) natijalari bo'yicha statistik ma'lumotlarni viloyat hokimligining Axborot-tahlil guruhiga kiritish.	15 yanvargacha (yillik) 15 iyulgacha (1- yarim yillik)
3-bosqich	Hududiy boshqarmalar	EMSKni takomillashtirish (qo'shish, chiqarib tashlash, hisoblash metodikalariga o'zgartirishlar kiritish) bo'yicha Guruhga takliflar kiritib borish.	doimiy
4-bosqich	Viloyat hokimi	"yaxshi" bahoga ega bo'lganda – tegishli ish haqining 50 foiz miqdorida va "a'lo" bahoga ega bo'lganda tegishli ish haqining 100 foizi miqdorida ustamalar bilan rag'batlantirish.	15 avgustgacha (1-yarim yillik) 15 fevralgacha (yillik)

5-bosqich	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligining filiali	Hokim o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligi natijalarini monitoring qilish hamda zaruratga ko'ra Toshkent viloyati hokimligiga, hududiy boshqarmalarga taqdimnoma va takliflar kiritish; hokim o'rinbosarlarining malaka oshirish ishlarini tashkillashtirish; "a'lo" ko'rsatkichlarga ega bo'lgan hokim o'rinbosarlarini lavozim bo'yicha o'sishini inobatga olgan holda rahbar kadrlar zaxirasiga kiritish choralarini ko'rish.	Baholash ishlari yakuni bo'yicha Yil yakunlari bo'yicha
6-bosqich	Viloyat hokimligining Axborot-tahlil guruhi	hududiy boshqarmalar tomonidan EMSKning maqsadli (prognoz) parametrlari hamda amaldagi (fakt) natijalari bo'yicha ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda "Samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritilishini ta'minlash.	belgilangan muddatlarda

Toshkent viloyat hokimining
2024-yil 15-yanvardagi
13-10-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

“Tuman (shahar) hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari –
boʻlim boshligʻining eng muhim samaradorlik koʻrsatkichlari*

T/r	Vazifalar	Eng muhim samaradorlik koʻrsatkichlari (EMSK)		Oʻlchov birligi	Vazn (jami – 100)	Prognoz	Masʼul vazirlik idora hududiy boshqarmalari
1.	Respublika budjetiga (kontingent) prognoz tushumini taʼminlash	Yil boshidan undirilgan tushum hajmi		mlrd soʻm	5	Oʻrnatilgan prognozga asosan	Iqtisodiyot va moliya vazirligi (prognoz)
2.	Tuman (shahar) mahalliy budjetiga prognoz tushumini taʼminlash	Yil boshidan undirilgan tushum hajmi		mlrd soʻm	30		Soliq qoʻmitasi (fakt)
3.	Maqsadli jamgʻarmalarga mahalliy budjetning qoʻshimcha manbalaridan mablagʻlar ajratilishi	3.1	Tashabbusli budjet jamgarmasiga mablagʻ oʻtkazish	mln soʻm	10		Iqtisodiyot va moliya vazirligi (prognoz, fakt)
		3.2	“Yoshlar daftari”da belgilangan maqsadlar uchun ajratilgan mablagʻlar	mln soʻm	10		
		3.3	“Ayollar daftari”da belgilangan maqsadlar uchun ajratilgan mablagʻlar	mln soʻm	10		
4.	Mahallalarda aholi bandligini taʼminlash	Bandligi taʼminlangan ishsizlar		%	10		Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi (prognoz, fakt)
5.	Mahallabay ishlash tizimi	Hokim yordamchilari faoliyatining samaradorligi (EMSK koʻrsatkichlari)		%	25		

***Izoh: Baholash ko'rsatkichlarining vaznlari Tartibga asosan belgilanadi.**

Toshkent viloyat hokimining
2024-yil 15-yanvardagi
13-10-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

**Tuman (shahar) hokimining o‘rinbosari – investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘ining
eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari***

T/r	Vazifalar	Eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (EMSK)		O‘lchov birligi	Vazn (jami – 100)	Prognoz	Mas’ul vazirlik idora hududiy boshqarmalari
1.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish	Yil boshidan o‘zlashtirilgan mablag‘		ming. AQSH doll.	25	O‘rnatilgan prognozga asosan	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (prognoz, fakt)
2.	Hududiy investitsiya dasturi doirasida ishga tushirilgan loyihalar	Yil boshidan o‘zlashtirilgan mablag‘		mlrd. so‘m	20		
3.	Eksporti hajmini bajarilishi	3.1	Canoat mahsulotlari	ming. AQSH doll.	20		
		3.2	Meva-sabzavotlar va poliz ekinlari	ming. AQSH doll.	15		
4.	Investitsion loyihalar doirasidagi ish o‘rinlari	Yaratilgan ish o‘rinlari		soni	20		

Izoh: Baholash ko‘rsatkichlarining vaznlari Tartibga asosan belgilanadi.

Toshkent viloyat hokimining
2024-yil 15-yanvardagi
13-10-0-Q/24-son qaroriga
4-ilova

**Tuman (shahar) hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha
o‘rinbosarining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari***

T/r	Vazifalar	Eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (EMSK)		O'lchov birligi	Vazn (jami - 100)	Prognoz	Mas'ul vazirlik idora hududiy boshqarmalari
1.	Davlat dasturlarini bajarilishini ta'minlash	Investitsiya dasturlarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash		mln. so'm	20	O'rnatilgan prognozga asosan	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, (prognoz, fakt)
2.	Mahalliy yo'llarni ta'mirlash	Yo'llarning ta'mirlanganlik darajasi		%	15		Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi (prognoz, fakt)
3.	Hudud tozaligini ta'minlash	Mavjud chiqindi qutilari va ularning xolati		ball	15		Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (prognoz, fakt)
4.	"Yashil makon" dasturi	4.1	Yashil bog'lar tashkil qilish	ga	10		
		4.2	Yashil bog'larni tashkil etishdagi ekilgan ko'chatlar tutish (ko'karish) darajasi	%	10		Halq deputatlari tuman (shahar) kengashlari (prognoz, fakt)
5.	Qabristonlar xolati	Hududdagi qabristonlar holati		ball	5		
6.	Aholi yashash punktlarini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash	Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi		%	5		"O'zsuvta'minot" AJ (prognoz, fakt)
7.	Hududlarda "Salomatlik yo'laklari"ni tashkil etish	7.1	Barpo etilgan piyoda yo'laklar uzunligi (allei)	km	10		Yoshlar siyosati va sport vazirligi (prognoz)
		7.2	Барпо этилган велосипед йўлаклари узунлиги	км	10		Halq deputatlari tuman (shahar) kengashlari (fakt)

Izoh: Baholash ko'rsatkichlarining vaznlari Tartibga asosan belgilanadi.

Toshkent viloyat hokimining
2024-yil 15-yanvardagi
13-10-0-Q/24-son qaroriga
5-ilova

Toshkent viloyati tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosarining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari

T/r	Vazifalar	Eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (EMSK)		O‘lchov birligi	Vazn (jami - 100)	Prognoz	Mas’ul vazirlik idora hududiy boshqarmalari
1.	Davlat dasturlarini bajarilishini ta’minlash	Investitsiya dasturlarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash		mln. so‘m	30	O‘rnatilgan prognozga asosan	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Moliya vazirligi (prognoz, fakt)
2.	“Yashil makon” dasturi	2.1	Yashil bog‘lar tashkil qilish	ga	15		Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (prognoz, fakt)
		2.2	Yashil bog‘larni tashkil etishdagi ekilgan ko‘chatlar tutish (ko‘karish) darajasi	%	20		
3.	Hududlarda “Salomatlik yo‘laklari”ni tashkil etish	3.1	Barpo etilgan piyoda yo‘laklar uzunligi (allei)	km	20		Yoshlar siyosati va sport vazirligi (prognoz) Halq deputatlari tuman (shahar) kengashlari (fakt)
		3.2	Barpo etilgan velosiped yo‘laklari uzunligi	km	15		

Izoh: Baholash ko‘rsatkichlarining vaznlari Tartibga asosan belgilanadi.

Toshkent viloyat hokimining
2024-yil 15-yanvardagi
13-10-0-Q/24-son qaroriga
6-ilova

**Toshkent viloyati tuman hokimining uy-joy, kommunal xizmat ko'rsatish va obodonlashtirish masalalari bo'yicha
o'rinbosarining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari***

T/p	Vazifalar	Eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (EMSK)	O'lchov birligi	Вазн (жами - 100)	Prognoz	Mas'ul vazirlik idora hududiy boshqarmalari
1.	Ko'p-kvartirali uy-joy fondini saqlash	Ko'p kvartirali uylarning kirish yo'laklarini ta'mirlash	Soni	20	O'rnatilgan prognozga asosan	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (prognoz, fakt)
2.	Ko'p-kvartirali uy-joy fondini saqlash	Ko'p kvartirali uylarning tashqi fasad qismini ta'mirlash	Uy soni	20		
3.	Ko'p-kvartirali uy-joy fondini saqlash	Ko'p kvartirali uylarning tom qismini ta'mirlash	Metr kv	20		
4.	Ko'p-kvartirali uy-joy fondini saqlash	Yer to'la qismidagi ichki kommunikatsiyalarni ta'mirlash	Uy soni	20		
5.	Ko'p-kvartirali uy-joy fondini saqlash	Bolalar maydonchasini yangi qurish va ta'mirlash	Soni	15		

Izoh: Baholash ko'rsatkichlarining vaznlari Tartibga asosan belgilanadi.

Toshkent viloyat hokimining
2024-yil 15-yanvardagi
13-10-0-Q/24-son qaroriga
7-ilova

Tuman (shahar) hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha

o'rinbosarining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari*

T/r	Vazifalar	Eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (EMSK)	O'lchov birligi	Vazn (jami - 100)	Prognoz	Mas'ul vazirlik idora hududiy boshqarmalari
1.	Maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish	Maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi	%	15	Ўрнатилган прогнозга асосан	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (prognoz, fakt)
2.	Mahallabay ishlash tizimi	Mahalladagi yoshlar yetakchilarining faoliyat samaradorligi natijasi	%	20		Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi (prognoz, fakt)
3.	"Yoshlar daftari"da belgilangan vazifalarning ijrosi	Yoshlarga ko'rsatilgan yordamlar (daftarga kiritilganlarga nisbatan) (9 ta yordam turi)	%	15		
4.	Mahallada yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish holati	Hududda madaniyat, intellektual, sport va vatanparvarlik tadbirlari tashkil etilganligi	soni	15		Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (prognoz, fakt)
5.	Maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy muhitning holati	Hududdagi maktablarning soniga nisbatan yashil maktablar ulushi	%	10		Prezident Xalk qabulxonasi
6.	Yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazish	Yoshlar bilan har chorakda o'tkazilgan uchrashuvlar soni	soni	15		Sog'liqni saqlash vazirligi (prognoz, fakt)
7.	Onalar o'limi darajasini kamaytirish	100 nafar tirik tug'ilganlarga nisbatan onalar o'limi koeffitsenti	%	5		
8.	Go'daklar o'limi darajasi kamaytirish	100 nafar tirik tug'ilganlarga nisbatan chaqaloqlar o'limi koeffitsenti	%	5		

Izoh: Baholash ko‘rsatkichlarining vaznlari Tartibga asosan belgilanadi.

Toshkent viloyat hokimining
2024-yil 15-yanvardagi
13-10-0-Q/24-son qaroriga
8-ilova

Tuman (shahar) hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘ining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari*

T/r	Vazifalar	Eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (EMSK)	O‘lchov birligi	Vazn (jami - 100)	Prognoz	Mas‘ul vazirlik idora hududiy boshqarmalari
1.	Mahallabay ishlash tizimi	Mahalladagi xotin-qizlar faollarini faoliyat natijadorligi	%	25	O‘rnatilgan prognozga asosan	Oila va xotin-qizlar boshqarmasi (prognoz, fakt)
2.	«Ayollar daftari» bilan ishlash natijadorligi	“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga ko‘rsatilgan yordamlar (6 ta turi)	soni	15		
3.	Xotin-qizlarni bandligini ta‘minlash	Ishlash istagi mavjud mehnatga layoqatli ishsiz ayollar sonidan bandligi ta‘minlangan ayollarning ulushi	%	15		
4.	Tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilgan xotin-qizlar	Tadbirkor ayollar (tadbirkorlik subyektlari)	soni	10		
5.	Oilaviy ajralishlarni kamaytirish	Qayd etilgan ajrimlarning (1000 ta oilalar soniga nisbatan darajasi)	‰	10	O‘tgan yilga nisbatan kamaytirish	Oila va xotin-qizlar boshqarmasi (prognoz, fakt)
6.	Xotin-qizlar jinoyatchiligini jilovlash	Xotin-qizlar o‘rtasida sodir etilgan mahalla jinoyatchilik darajasi (1000 ta ayolga nisbatan)	‰	8		Oila va xotin-qizlar boshqarmasi (prognoz, fakt)
7.	Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik	Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikni qisqartirish	soni	8		Ichki ishlar boshqarmasi(fakt)
8.	Xotin-qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish	Sog‘lom xotin-qizlar sonini ortishi	soni	9	O‘tgan yilga nisbatan ko‘payishi	Oila va xotin-qizlar boshqarmasi (prognoz, fakt) Sog‘liqni saqlash boshqarmasi, (fakt)

Izoh: Baholash ko‘rsatkichlarining vaznlari Tartibga asosan belgilanadi.

Toshkent viloyat hokimining
2024-yil 15-yanvardagi
13-10-0-Q/24-son qaroriga
9-ilova

**Tuman (shahar) hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosarining
eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari***

T/r	Vazifalar	Eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (EMSK)		O'lchov birligi	Vazn (jami - 100)*	Prognoz	Mas'ul vazirlik idora hududiy boshqarmalari
1.	Qishloq xo'jaligini barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali tarmoqni jadal rivojlantirish	1.1	Dehqonchilik mahsulotlari o'sish sur'ati (sabzavot, don va dukkakli don, meva, uzum, poliz, texnik ekinlar)	%	25	O'rnatilgan prognozga asosan	Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi (prognoz, fakt)
		1.2	Chorvachilik mahsulotlarining o'sish sur'ati (go'sht (tirik vaznda), shu jumladan parranda go'shti; sut, tuxum, qorako'l, jun, pilla, asal)	%	15		Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi (prognoz, fakt)
2.	Baliqchilik xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish	Baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini o'sish sur'ati		%	10		Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (prognoz, fakt)
3.	Eksporbop mahsulot yetishtirish	Meva-sabzavot va poliz ekinlari (olma, anor, behi, gilos, uzum, shaftoli, xurmo, sabzi, piyoz, kartoshka, bulg'or qalampiri, ko'katlar)		mln. AQSH doll.	15		
4.	Suvni tejoychi texnologiyalarni joriy etish	Suv tejoychi texnologiyalar joriy etiladigan maydon		ga	15		Suv xo'jaligi vazirligi (prognoz, fakt)
5.	Tomorqa xizmatini rivojlantiish	Tomorqa faoliyatining o'sish sur'atlari		%	10		Qishloq xo'jaligi vazirligi (prognoz, fakt)
6.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasini oshirish	5.1	Meva-sabzavotni qayta ishlash darajasi	%	5		
		5.2	Go'shtni va sutni qayta ishlash darajasi	%	5		

Изоҳ: Баҳолаш кўрсаткичларининг вазнлари Тартибга асосан белгиланади.”.

3. Eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumot taqdim etuvchi mas'ul idoralar ro'yxati quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

№	Idoralar nomi
Tuman (shahar) hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari	
1.	Toshkent viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi
2.	Toshkent viloyati soliq boshqarmasi
3.	Toshkent viloyati mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi
Tuman (shahar) hokimining o'rinbosari – investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i	
4.	Toshkent viloyati investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi
Tuman (shahar) hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari	
5.	Toshkent viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi
6.	Toshkent viloyati Avtomobil yo'llari hududiy boshqarmasi
7.	Toshkent viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi
8.	Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari
9.	“Toshkent suv ta'minoti” MCHJ
10.	Toshkent viloyati yoshlar siyosati va sport boshqarmasi
Toshkent viloyati tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari	
11.	Toshkent viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi
12.	Toshkent viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi
13.	Toshkent viloyati yoshlar siyosati va sport boshqarmasi
14.	Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari
Toshkent viloyati tuman hokimining uy-joy, kommunal xizmat ko'rsatish va obodonlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari	

15.	Toshkent viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi
Tuman (shahar) hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari	
16.	Toshkent viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi
17.	Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi
18.	O'zbekiston Respublikaasi Prezidentining Toshkent viloyatidagi Xalq qabulxonasi
19.	Toshkent viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi
Tuman (shahar) hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i	
20.	Toshkent viloyati oila va xotin-qizlar boshqarmasi
21.	Toshkent viloyati Ichki ishlar boshqarmasi
22.	Toshkent viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi
Tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari	
23.	Toshkent viloyati veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi
24.	Toshkent viloyati investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi
25.	Toshkent viloyati suv xo'jaligi boshqarmasi
26.	Toshkent viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi

Toshkent viloyat hokimining
2024-yil 15-yanvardagi
13-10-0-Q/24-son qaroriga
10-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati hokimining “Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 28-maydagi “Tuman (shahar) hokimi o‘rinbosarlarining faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholashning vaqtinchalik tartibini tasdiqlash haqida” 324-10-0-Q/22-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” qarori loyihasiga

TAQQOSLASH JADVALI

Amaldagi tahrir	Taklif etilayotgan tahrir	Asoslantirish
7. EMSKlarining maqsadli (prognoz) parametrlarini hamda amaldagi (fakt) natijalarini viloyat hokimligining axborot-tahlil guruhiga Tartib bilan belgilangan muddatlarda berib borishni ta'minlash uchun ushbu qarorning 2-ilovasida belgilangan hududiy davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari mas'ul etib belgilansin.	7. EMSKlarining maqsadli (prognoz) parametrlarini hamda amaldagi (fakt) natijalarini “Samaradorlik.uz” elektron platformasiga Tartib bilan belgilangan muddatlarda kiritilishini ta'minlash uchun ushbu qarorning 2-ilovasida belgilangan hududiy davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari mas'ul etib belgilansin.	Hokim o‘rinbosarlari faoliyati samaradorligining EMSK natijalarini kiritishda viloyat Axborot-tahlil guruhlar, vazirlik va idoralar, ularning hududiy boshqarmalaridagi ma'lumotlar o‘rtasida tafovutlar vujudga kelishining oldini olish, shuningdek baholash natijalari haqqoniyligini ta'minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan “Samaradorlik.uz” elektron platformasi ishlab chiqilib, vazirlik va idoralarning hududiy boshqarmalari tomonidan bevosita EMKS natijalarini kiritish imkoniyati yaratilgan. Shunga ko‘ra, amaldagi tartibga o‘zgartirish kiritilmoqda.
Tuman (shahar) hokimi o‘rinbosarlarining faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholashning vaqtinchalik tartibi		

Amaldagi tahrir	Taklif etilayotgan tahrir	Asoslantirish
1. Ushbu Vaqtinchalik tartib (keyingi o‘rinlarda – Tartib) tuman (shahar) hokimi o‘rinbosarlarining (keyingi o‘rinlarda – hokim o‘rinbosarlari) faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (keyingi o‘rinlarda – EMSK) asosida baholash tizimini belgilaydi.	1. Ushbu Vaqtinchalik tartib (keyingi o‘rinlarda – Tartib) tuman (shahar) hokimi o‘rinbosarlarining (keyingi o‘rinlarda – hokim o‘rinbosarlari) faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (keyingi o‘rinlarda – EMSK) asosida “Samaradorlik.uz” elektron platformasi orqali baholash tizimini belgilaydi.	Hokim o‘rinbosarlari faoliyati samaradorligining EMSK natijalarini kiritishda viloyat Axborot-tahlil guruhlar, vazirlik va idoralar, ularning hududiy boshqarmalaridagi ma’lumotlar o‘rtasida tafovutlar vujudga kelishining oldini olish, shuningdek baholash natijalari haqqoniyligini ta’minlash maqsadida
2. Hokim o‘rinbosarlarining faoliyati har yarim yil yakuni bo‘yicha viloyat hokimligining axborot-tahlil guruhi (keyingi o‘rinlarda – Guruh) tomonidan baholanadi.	2. Hokim o‘rinbosarlarining faoliyati har yarim yil yakuni bo‘yicha viloyat hokimligining axborot-tahlil guruhi (keyingi o‘rinlarda – Guruh) hamda vazirlik va idoralarining hududiy boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda – hududiy boshqarmalar) tomonidan baholanadi.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan “Samaradorlik.uz” elektron platformasi ishlab chiqilib, vazirlik va idoralarining hududiy boshqarmalari tomonidan bevosita EMKS natijalarini kiritish imkoniyati yaratilgan. Shunga ko‘ra, amaldagi tartibga o‘zgartirish kiritilmoqda.
5. Hokim o‘rinbosarlarining faoliyati samaradorligi obyektiv va tasdiqlanadigan ma’lumotlar, jumladan davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi. To‘ldirilmoqda	5. Hokim o‘rinbosarlarining faoliyati samaradorligi obyektiv va tasdiqlanadigan ma’lumotlar, jumladan davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy ma’lumotlari asosida amalga oshirilib, EMSKga erishish yuzasidan ma’lumotlar tegishli hududiy boshqarmalar tomonidan “Samaradorlik.uz” elektron platformasiga kiritiladi. Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga tegishli ko‘rsatkichlar Guruh tomonidan “Samaradorlik.uz” elektron platformasiga kiritib boradi.	

Amaldagi tahrir	Taklif etilayotgan tahrir	Asoslantirish
10. Belgilangan EMSKlar bo'yicha: respublika vazirlik va idoralarning hududiy boshqarmalari (keyingi o'rinlarda – hududiy boshqarmalar) 10 yanvargacha (1-yarim yillik) hamda 10 iyulgacha (yillik) maqsadli (prognoz) parametrlarini; hududiy boshqarmalar hamda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari 10 yanvargacha (yillik) hamda 10 iyulgacha (1- yarim yillik) amaldagi (fakt) natijalari bo'yicha ma'lumotlarni Guruhga yuboradi.	10. Belgilangan EMSKlar bo'yicha: 15 fevralgacha (1-yarim yillik) hamda 15 avgustgacha (yillik) maqsadli (prognoz) parametrlarni hududiy boshqarmalar "Samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritadi hamda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari Guruhga yuboradi; 15 yanvargacha (yillik) hamda 15 iyulgacha (1- yarim yillik) amaldagi (fakt) natijalari bo'yicha ma'lumotlarni hududiy boshqarmalar "Samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritadi hamda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari Guruhga yuboradi.	Hokim o'rinbosarlari faoliyati samaradorligining EMSK natijalarini kiritishda viloyat Axborot-tahlil guruhlari, vazirlik va idoralar, ularning hududiy boshqarmalaridagi ma'lumotlar o'rtasida tafovutlar vujudga kelishining oldini olish, shuningdek baholash natijalari haqqoniyligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan "Samaradorlik.uz" elektron platformasi ishlab chiqilib, vazirlik va idoralarning hududiy boshqarmalari tomonidan bevosita EMKS natijalarini kiritish imkoniyati yaratilgan. Shunga ko'ra, amaldagi tartibga o'zgartirish kiritilmoqda. Shuningdek, viloyat hokim tomonidan EMSKlarning maqsadli (prognoz) parametrlari va amaldagi (fakt) natijalarini tasdiqlash amaliyoti bekor qilinmoqda. Shu bois, hududiy boshqarmalar tomonidan EMSKlarning maqsadli (prognoz) parametrlari va amaldagi (fakt) natijalarini "Samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritish muddati uzaytirilmoqda.
11. Guruh tomonidan soha bo'yicha o'rinbosarlar, tuman (shahar) hokimlari va hokim o'rinbosarlariga dastlabki shakllangan EMSKning maqsadli (prognoz) parametrlari hamda amaldagi (fakt) natijalari bo'yicha ma'lumotlar tasdiqlangunga qadar 2 kunlik muddatda ko'rib chiqish uchun yuboriladi. Bunda, soha bo'yicha o'rinbosarlar, tuman (shahar) hokimlari va hokim o'rinbosarlari 3 kunlik muddatda dastlabki shakllangan ma'lumotlar bo'yicha adolatli shakllanganligi yuzasidan munosabat bildirishi mumkin.		
12. Viloyat hokimi: EMSKlarning maqsadli (prognoz) parametrlarini 30 yanvargacha (1-yarim yillik) hamda 30 iyulgacha (yillik); EMSKlarning amaldagi (fakt) natijalarini 15 yanvargacha (yillik) hamda 15 iyulgacha (1-yarim yillik) tasdiqlaydi.		
15. Natijadorligi yuqori bo'lga hokim o'rinbosarlarini moddiy rag'batlantirish maqsadida mahalliy budjetning orttirib bajarilgan qismi, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan: 15 avgustgacha (1-yarim yillik) hamda 15 fevralgacha (yillik) "yaxshi" bahoga ega bo'lganda – tegishli ish haqining 50 foiz miqdorida va "a'lo" bahoga ega bo'lganda tegishli ish haqining 100 foizi miqdorida ustamalar bilan keyingi baholash natijalariga qadar rag'batlantiriladi;	15. Natijadorligi yuqori bo'lga hokim o'rinbosarlarini moddiy rag'batlantirish maqsadida mahalliy budjetning orttirib bajarilgan qismi, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan: 15 avgustgacha (1-yarim yillik) hamda 15 fevralgacha (yillik) "yaxshi" bahoga ega bo'lganda – tegishli ish haqining 50 foiz miqdorida va "a'lo" bahoga ega bo'lganda tegishli ish haqining 100 foizi miqdorida ustamalar bilan keyingi baholash natijalariga qadar 6 oy rag'batlantiriladi;	Huquqni qo'llash amaliyotida, baholash natijalariga ko'ra, "a'lo" va "yaxshi" natija qayd etgan hokim o'rinbosarlarini o'z vaqtida va to'liq rag'batlantirish maqsadida ushbu xatboshga tahririy o'zgartirish kiritilmoqda.
16. Guruh doimiy ravishda hududiy boshqarmalar tomonidan EMSKning maqsadli (prognoz) parametrlari hamda amaldagi (fakt) natijalari bo'yicha ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda taqdim etilishini ta'minlaydi.	16. Guruh doimiy ravishda hududiy boshqarmalar tomonidan EMSKning maqsadli (prognoz) parametrlari hamda amaldagi (fakt) natijalari bo'yicha ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda "Samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritilishini ta'minlaydi.	Hokim o'rinbosarlari faoliyati samaradorligining EMSK natijalarini kiritishda viloyat Axborot-tahlil guruhlari, vazirlik va idoralar, ularning hududiy boshqarmalaridagi ma'lumotlar o'rtasida tafovutlar vujudga kelishining oldini olish, shuningdek baholash natijalari haqqoniyligini ta'minlash maqsadida amaldagi tartibga o'zgartirish kiritilmoqda.
Tuman (shahar) hokimi o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligini baholash SXEMASI		

Amaldagi tahrir	Taklif etilayotgan tahrir	Asoslantirish
1-bosqich Hududiy boshqarmalar xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari - maqsadli (prognoz) parametrlarini viloyat hokimligining axborot-tahlil guruhiga kiritish; - amaldagi (fakt) natijalari bo'yicha statistik ma'lumotlarni viloyat hokimligining axborot-tahlil guruhiga kiritish. 10 yanvargacha (1-yarim yillik) 10 iyulgacha (yillik) 10 yanvargacha (yillik) 10 iyulgacha (1-yarim yillik)	1-bosqich Hududiy boshqarmalar xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari - maqsadli (prognoz) parametrlarini "Samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritish; - maqsadli (prognoz) parametrlarini viloyat hokimligining axborot-tahlil guruhiga kiritish; 15 fevralgacha (1-yarim yillik) 15 avgustgacha (yillik)	Viloyat hokim tomonidan EMSKlarning maqsadli (prognoz) parametrlari va amaldagi (fakt) natijalarini tasdiqlash amaliyoti bekor qilinmoqda. Shu bois, hududiy boshqarmalar tomonidan EMSKlarning maqsadli (prognoz) parametrlari va amaldagi (fakt) natijalarini "Samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritish muddati uzaytirilmoqda.
2-bosqich Viloyat hokimligining axborot-tahlil guruhi soha bo'yicha o'rinbosarlar, tuman (shahar) hokimlari va hokim o'rinbosarlari dastlabki shakllangan EMSKning maqsadli (prognoz) parametrlari hamda amaldagi (fakt) natijalari bo'yicha ma'lumotlar tasdiqlangunga qadar ko'rib chiqish uchun soha bo'yicha o'rinbosarlar, tuman (shahar) hokimlari va hokim o'rinbosarlarga yuborish; dastlabki shakllangan ma'lumotlar bo'yicha adolatli shakllanganligi yuzasidan munosabat bildirish. 2 kunlik muddatda 3 kunlik muddatda	2-bosqich Hududiy boshqarmalar xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari amaldagi (fakt) natijalari bo'yicha statistik ma'lumotlarni "Samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritish; amaldagi (fakt) natijalari bo'yicha statistik ma'lumotlarni viloyat hokimligining axborot-tahlil guruhiga kiritish. 15 yanvargacha (yillik) 15 iyulgacha (1- yarim yillik)	Hokim o'rinbosarlari faoliyati samaradorligining EMSK natijalarini kiritishda viloyat Axborot-tahlil guruhlari, vazirlik va idoralar, ularning hududiy boshqarmalaridagi ma'lumotlar o'rtasida tafovutlar vujudga kelishining oldini olish, shuningdek baholash natijalari haqqoniyligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan "Samaradorlik.uz" elektron platformasi ishlab chiqilib, vazirlik va idoralarning hududiy boshqarmalari tomonidan bevosita EMKS natijalarini kiritish imkoniyati yaratilgan. Shunga ko'ra, amaldagi tartibga o'zgartirish kiritilmoqda.
3-bosqich Viloyat hokimi EMSKlarning maqsadli (prognoz) parametrlarini tasdiqlash; EMSKlarning amaldagi (fakt) natijalarini tasdiqlash. 30 yanvargacha (1-yarim yillik) 30 iyulgacha (yillik) 30 yanvargacha (yillik) 30 iyulgacha (1-yarim yillik)		
4-bosqich	3-bosqich	Tahririy o'zgartirish kiritilmoqda.
5-bosqich	4-bosqich	
6-bosqich	5-bosqich	
7-bosqich	6-bosqich	